

# SHARQ MASH'ALI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

1  
2024



*Ilmiy-uslubiy,  
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.  
Ta'sischi:  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
1992-yildan chiqa boshlagan  
Jumal O'zbekiston Respublikasi  
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi  
ro'yxatidan qayta o'tgan  
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:

**G. RIXSIYEVA** (prof., f.f.n.)

**Tahrir hay'ati:**

**D. SAYFULLAYEV** (prof., t.f.d.)

(bosh muharrir o'rinbosari)

**X. ALIMOVA** (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

**A. MANNONOV** (prof., f.f.d.)

**Q. SODIQOV** (prof., f.f.d.)

**R. XODJAYEVA** (prof., f.f.d.)

**SH. SHOMUSAROV** (prof., f.f.d.)

**Q. OMONOV** (prof., f.f.d.)

**U. MUHIBOVA** (prof., f.f.d.)

**D. MUHIDDINOVA** (f.f.d.)

**X. HAMIDOV** (f.f. bo'yicha PhD)

**B. ABDUHALIMOV** (prof., t.f.d.)

**A. XODJAYEV** (prof., t.f.d.)

**M. IS'HOQOV** (prof., t.f.d.)

**X. FAYZIYEV** (dos., t.f.n.)

**D.XODJIMURATOVA** (t.f. bo'yicha PhD)

**SH. YOVOQCHEV** (prof., s.f.d.)

**N. ABDULLAYEV** (dos., s.f.d.)

**A. VAHOBOV** (prof., i.f.d.)

**R. ABDULLAYEV** (prof., i.f.d.)

**I. MAVLANOV** (prof., i.f.d.)

**R. BAHODIROV** (prof., fal.f.d.)

**E. IZZETOVA** (prof., fal.f.d.)

**A. SHONAZAROVA** (AQSHning

Kolumbiya univ. prof.)

**G. GLIZON** (AQSHning New

Mexico univ. prof.)

**ONO MASAKI** (Yaponiyaning

Tsukuba univ. prof.)

**LI DJI IN** (Koreya Respublikasining

Xankuk chet tillar univ. prof.)

**V. MESAMED** (Isroilning

Quddus univ. prof.)

**A. GURER** (Turkiyaning

Anqara univ. prof.)

**A. VOROBYEV** (Rossiya Fanlar

akademiyasi, Sharqshunoslik

instituti katta ilmiy xodimi)

**G. AVDA** (Misr Arab Respublikasining

Xelvon univ. prof.)

**A. TOHIR** (Misr Arab Respublikasining

“Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi

direktori)

**S. KURAYM** (f.f. bo'yicha PhD)

**H. BAYDEMIR** (Turkiyaning

Otaturk univ. prof.)

# SHARQ MASH'ALI

ISSN 2181-2071

MUNDARIJA № 1, 2024-yil

## Adabiyotshunoslik

- Imomnazarov M.** Dahoning tug'ilishi.....3  
**Raxmonov A.** Abu Yusufning “Kitob al-xaroj”  
asarida xalq farovonligi g'oyasiining aks etishi .5  
**Xubbaliyeva M.** Xitoylik sayyoh Shyuan Zangning  
“Buyuk Tan sayohatnomasi” asari va “Sin tan  
shu” manbasining o'ziga xos jihatlari.....16  
**Saydganliyeva G.** Navoiyxonlik va Navoiy  
ijodiy an'analarining Qo'qon adabiy muhiti  
rivojidadagi o'rni. ....23  
**Abdullayeva D.** G'ada as-samman va Zulfiya  
Qurolboy qizi hikoyalarida portret va nutqiy  
xarakteristika .....32  
**Ahmedov A.** To'tinoma asarining Buxorodagi  
nusxalari va ularning kodikologik qiyosiy tahlili .....39

## Tilshunoslik va tarjimashunoslik

- Kurbanova G.** Amin Maalufning “Samarqand  
yoxud zulmatda yo'qolgan ziyoni izlab...”  
asarida ifodalangan sharq ayollari  
obrazining tarjimada qayta yaratilishi..... 48  
**Kadirova X.** “O'tkan kunlar” hamda  
“Anna Karenina” asarlarining iks-femik  
birliklar tarjimasi muammolari..... 58  
**Hakimova B.** Tilshunoslikda “Konsept” birligi  
va uning o'rganilishi ..... 68

## Manbashunoslik va tarixshunoslik

- Asloniy M.Reza** Kamoliddin Behzodning  
Temuriylar davri miniatyurasi  
va Eron rassomchiligi rivojidadagi hissasi..... 76  
**Polvonov J.** Mustamlaka davrida xiva xonligida  
xonga murojaatning cheklanishi ..... 82  
**Xayrullayeva I.** Hindiston mamlakati  
xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi ..... 91  
**Abdullayev J.** Turkiy davlatlar tashkilotining  
paydo bo'lishi va istiqbollari ..... 100  
**Abirov V.** O'zbek xalqi etnik tarixiga oid  
tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va ilmiy  
natijalari ..... 109

|  |   |  |
|--|---|--|
| <p style="text-align: center;"><b>Nashrga tayyorlovchilar:</b><br/><b>J. ISMOILOV, A. ZIYODOV</b><br/><b>L. HAMDAMZODA,</b><br/><b>H. SULAYMONOVA</b></p> <p><b>Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.</b></p> <p>Jurnal original-maket asosida bosildi.<br/>Sharq mash'ali, 2024 yil 1-son.<br/>e-mail: nashriyot@tsuos.uz<br/>web-site: www.tsuos.uz<br/>Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p> | <p><b>Xalqaro munosabatlar va siyosat</b></p> | <p><b>Sadibaqosev H.</b> Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xitoyning o'rni.....121<br/><b>Джумаева Г.</b> Эволюция санкций и санкционной политики: краткий генезис .129<br/><b>Muydinov D.</b> Yevropaga migratsiya va qochoqlar oqimi: mintaqa davlatlarining migratsiya siyosati..... 136<br/><b>Soipov B.</b> Birlashgan arab amirliklarining ichki va tashqi siyosatida din omili ..... 145<br/><b>Mamadjonov A.</b> Turkiya tashqi siyosatining konseptual huquqiy asoslari va zamonaviy jihatlari ..... 155<br/><b>Mirg'iyosov M.</b> Xitoy Xalq Respublikasi transport sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tahlili .....163<br/><b>Nurimbetov R</b> Shanxay hamkorlik tashkilotining evolyutsiyasi: asosiy bosqichlari va institutsional rivojlanish xususiyatlari ..... 169<br/><b>Eshankulov A.</b> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlamentlararo hamkorligining o'ziga xosligi ..... 177<br/><b>Bo'ronov S., Nazarova F.</b> Hozirgi davrda Turkiya tashqi siyosati: mintaqaviy davlatdan global davlat sari.....187</p> |
|  | <p><b>Ilmiy axborot</b></p>                   | <p><b>Korayem S.M.</b> Ali-Shir Nava'i and his literary heritage: (A study on his influence and contribution to world civilization) ..... 194<br/><b>Yuldasheva X.</b> Roja al Soniy ijodida ayollar mavzusi .....205<br/><b>Hasaniy M.</b> Maxdum Vosiliy fondi va undagi "Xamsa"ning qo'lyozma nusxasi .....209</p>  |
|  | <p><b>Tarjima</b></p>                         | <p><b>To'xliyev B.</b> Ajdodlardan kelgan o'gitlar .....211</p>  |

## HINDISTON MAMLAKATI XOTIN-QIZLAR TA'LIMI EVOLUTSIYASI

### XAYRULLAYEVA IRODA

Tayanch doktorant, TDSHU

**Аннотация:** Ushbu maqolada Hindiston ta'lim tizimi, xususan, xotin-qizlar ta'limining rivojlanish tarixi haqida yoritib beriladi. Xotin-qizlar ta'limi uzoq o'tmishga ega bo'lib, Vedalar davrida ham ayollar tomonidan Veda matnlari yod olingani tarixdan ma'lum. Shuningdek, o'rta asrlarda ham musulmon hukmdorlari bosqini davri, xususan Boburiylar hukmronligi paytida ham xotin-qizlar ta'lim olishi mumkin bo'lgan. Musulmon hukmdorlar davrida zodagon xonadon oila farzandlari, aslzoda hamda malikalar, shuningdek, oddiy xalq farzandlari ham ta'lim olishi hukumat tomonidan nazoratga olingan bo'lib, asosan Boburiylar imperiyasi hududida amalda bo'lgan.

Hind jamiyatida xotin-qizlarning ta'lim olishining keng miqyosda yoyilish jarayoni British Raj ya'ni Britaniya mustamlakachiligi davriga to'g'ri keladi. Xotin-qizlarning ommaviy tarzda ta'limga bo'lgan ehtiyoji Angliyada ham XIX asrlarga borib taqaladi. Vaholanki, bu jarayon Britaniyaning mustamlaka hududlarida ham aks-sado bera boshlaydi. Dastlab, xristian missionerlari tomonidan targ'ib etilgan bu faoliyat, asta-sekin mustamlaka ma'muriyati va keyinchalik hind jamiyati ilg'or vakillari tomonidan davom ettiriladi. Mamlakat hududida sekin-asta qizlar maktabi, kollej va universitetlar ochila boshladi. Bu jarayon tabiiyki mamlakat rivojlanishida ijobiy ahamiyat kasb etdi va Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatning qator hududlarida bu turdagi ilm maskanlari ochila boshladi. Buning natijasi o'laroq, hind xotin-qizlari jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z o'rnilarini topib, ular orasida mamlakat rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkaza olgan faol ayollar yetishib chiqdi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Gurular, Boburiylar, madrasa, pathshala, British Raj, Savitribai Phule, Bhidevada, Bethune kolleji, SNTD ayollar universiteti, savodxonlik darajasi.

**Аннотация:** Данная статья проливает свет на историю развития индийской системы образования, в частности, образования женщин. Женское образование имеет давнюю историю, и из истории известно, что ведические тексты заучивались женщинами ещё в ведический период. Также в Средние века, во время нашествия мусульманских правителей, особенно при правлении Бабуридов, женщины могли получать образование. Под властью мусульманских правителей государство контролировало образование детей знатных семей, дворян и принцесс, а также детей простых людей, и это практиковалось преимущественно на территории империи Бабура.

Процесс широкого распространения женского образования в индийском обществе начался в период британского правления, то есть британского колониализма. Потребность в массовом образовании женщин возникла в Англии ещё в XIX веке, но вскоре этот процесс начал отражаться и на британских колониальных территориях. Изначально продвигаемая христианами миссионерами деятельность постепенно была продолжена колониальной администрацией, а затем и передовыми представителями индийского общества. Постепенно в стране стали открываться женские школы, колледжи и университеты. Естественно, этот процесс имел положительное значение для развития страны, и после обретения Индией независимости в ряде регионов страны стали открываться научные центры такого типа. В результате этого индийские женщины нашли своё место в общественно-политической жизни общества, среди них появились активные женщины, способные оказать влияние на развитие страны.

**Ключевые слова и выражения:** гуру, Бабуриды, медресе, патшалла, британское правление, Савитрибай Пуле, Бхидевада, колледж Бетун, Женский университет SNTD, уровень грамотности.

**Abstract:** This article sheds light on the history of the development of the Indian education system, particularly women's education. Women's education has a long history, and it is known that Vedic texts were memorized by women even during the Vedic period. In the Middle Ages, during the invasions of Muslim rulers, especially during

*the reign of the Baburis, women were able to receive education. Under the rule of Muslim rulers, the government oversaw the education of noble families' children, including nobles, princesses, and commoners, and this was mainly practiced in the territory of the Babur Empire.*

*The process of widespread women's education in Indian society corresponds to the period of British rule, i.e., British colonialism. The need for mass education of women emerged in England as early as the 19th century, but this process soon echoed in British colonial territories. Initially promoted by Christian missionaries, the activity was gradually continued by the colonial administration and later by progressive figures within Indian society. Gradually, girls' schools, colleges, and universities began to open across the country. Naturally, this process had a positive impact on the country's development, and after India's independence, such educational centers began to emerge in various regions. As a result, Indian women found their place in the socio-political life of society, and many active women emerged who were able to influence the country's development.*

**Key words and phrases:** *Gurus, Baburis, madrasa, pathshala, British Raj, Savitribai Phule, Bhidewada, Bethune College, SNTD Women's University, literacy rate.*

**Kirish.** Ta'lim bizga jamiyat, oila va millatimiz oldidagi burchlarimizni bilish, tushunish va hurmat qilish uchun ko'nikma, texnika, ma'lumot hamda bilim beradigan vositadir. Shu sababli, ta'limning hayotdagi ahamiyati juda katta va ko'p qirrali hisoblanadi. Ta'limning hayotdagi ahamiyati shundaki, u har bir insonda dunyo va jamiyatga nisbatan dunyoqarash, yaxshi nuqtayi nazarni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim bizga yangi g'oyalarni olish va o'rganishga ko'maklashadi.

Dunyodagi 163 million savodsiz yoshlarning qariyb 63 foizini ayollar tashkil etadi<sup>1</sup>. Barcha bolalarga ta'lim berish orqali savodxonlik darajasi tabiiy yo'sinda oshadi, bu esa iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy farovonlikka erishishga yo'l ochadi. Bugungi davrda nafaqat rivojlangan, shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda ham hukumat asosiy e'tiborini ta'limga qaratib, uning negizida xotin-qizlarning sifatli ta'lim olishiga doir qator dasturlarni ilgari surmoqda. Chunki, yosh kelajak avlodning rivojlanishi jarayonida xotin-qizlarning ta'lim olishi shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Maqolada Hindiston jamiyatidagi zamonaviy g'arbcha ta'lim tizimi, xotin-qizlar ta'limi evolutsiyasi va bugungi holati, uning hind jamiyati, iqtisodi, ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sirini o'rganish davomida xalqaro tashkilotlar materiallari, hind hukumati bayonotnomalari, xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, tadqiqotlariga tayangan holda tarixiy, xronologik, qiyosiy, tizimli tahlil usullaridan samarali foydalanildi.

**Natija va muhokamalar:** Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida Hindistonda ham xotin-qizlar ta'limi ko'p yillar davomida katta ahamiyatga ega bo'lgan mavzu bo'lib kelmoqda. Ta'lim qizlar va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Bu davlat, jamiyat, millat shuningdek ularning oila a'zolari hamda o'zlarining ijtimoiy-siyosiy hayotlarini o'zgartirishi mumkin. So'nggi yillarda hukumat bu sohada sezilarli yutuqlarga erishganiga qaramay, Hindistondagi xotin-qizlar ta'lim olishda hali ham ko'p qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Hindistonda qizlar ta'limining ahamiyati shundaki, u qashshoqlik, gender tengsizligi, bolalar nikohi va aholi sonining o'sishi kabi bir qancha ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini yaratdi. Ta'lim qizlarga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, iqtisodiy istiqbollarini yaxshilashga yordam beradi va ularga ongli hayotiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. O'qimishli qizlarda turmush qurish va erta tug'ishni kechiktirish ehtimoli ko'proq bo'lib, o'zlari va farzandlari salomatligini yaxshilashga yo'l ochadi. Shuningdek, ular o'z oilalarining iqtisodiy daromadiga hissa qo'shishlari va qashshoqlikni oldini olishga yordam berishlari mumkin.

Hindistonda xotin-qizlar ta'limi uzoq davrga borib taqaladi. Hindistonda dastlab (Veda davrida) guru (ustoz)lar barcha hindlarga hech qanday cheklovlarsiz ta'lim berishgan. Gurular ularga Mokshaga qanday

<sup>1</sup> Top 10 Reasons Why Female Education is Important  
<https://borgenproject.org/top-10-reasons-female-education-important/>

erishishni o'rgatishda katta ustunlikka ega bo'lganlar. Veda davri ta'lim tizimi asosini diniy urf-odatlar, qonun-qoidalar va farzlarni bajarishga asoslangan bo'lsa-da, o'rta va so'ngi bosqichlarda dunyoviy fanlar, jumladan matematika, iqtisodiyot, adabiyot, grammatika, tibbiyot, tarix va tabiiy fanlar nisbatan rivojlana boshladi. Shuningdek, garchi qiz bolalar "Gurukul"da tahsil olmasalar-da, ularga aksariyat hollarda o'z uylarida din va adabiyotdan tashqari raqs, musiqa, she'riyat sohasidagi bilimlarning berilishi xotin-qizlarga o'sha davrdagi katta e'tibordan darak beradi<sup>1</sup>.

Shuningdek, o'rta asrlarda Islom dini asosan Boburiylar davrida hind ta'limiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yosh musulmon talabalar maktab va madrasalarda, hindlar esa pathshalalarda ta'lim olib, o'zlarining diniy matnlari va qadimiy adabiyotlari haqida ma'lumot olgan, shuningdek, dunyoviy ilm-fan taraqqiyotidan ham biroz xabardor bo'lishgan<sup>2</sup>. Boburiylar davrida jamiyatdagi xotin-qizlar ta'limiga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, asosan saroy vakilalari, xususan, qirolicha, malika va yuqori tabaqaga mansub ayollar ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ziyoli ayollar jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lib, ba'zilari o'z xizmatlariga qarab podshohlarga maslahatchi sifatida ham faoliyat olib borganlar<sup>3</sup>.

Xotin-qizlar uchun muntazam alohida davlat maktablari bo'lmagan. Musulmon badavlat oilalar qizlarini uyda o'qitish uchun murabbiylar yollab, Qur'on yodlatilgan. Boburiy malikalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ular muntazam ravishda Qur'on o'qib, qarindoshlari o'rtasida esa xat almashinuvi bo'lgan. Ba'zi Boburiy malikalar she'rlar yozgan va musiqadan xabardor bo'lishgan. Monserratning so'zlariga ko'ra, Akbar hukmronligi davrida sulton haramidagi xonimlarga muntazam ta'lim berish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Boburiy podshohlar qiz farzandlarini o'qitish uchun odatda eronliklardan bo'lgan ziyoli ayollarni yollaganlar<sup>4</sup>. O'rta tabaqaga mansub oila qiz farzandlari esa asosan, uy xo'jaligi yumushi bilan band bo'lishgan, shuningdek, ota-onalaridan kasb-hunar o'rganganlar, masalan, tikuvchilik, pazandachilik, oshpazlik, chorvachilik va boshqalar<sup>5</sup>.

Bundan tashqari Akbarshohning maorif tizimini takomillashtirish borasida ulkan yutuqlarga erishgani dalili sifatida xotin-qizlar uchun maktab tashkil etgani, u yerda fors tili va adabiyoti, gumanitar fanlar o'qitilganligi, saroy ahli uchun ularning dini, kastasidan qat'iy nazar dunyoviy bilim olishlariga sharoit yaratilganligi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti avvalgilarga solishtirganda ancha yaxshilanganligini keltirishimiz mumkin. Aynan Akbarshoh davrida boburiylarning musulmon an'alarini mahalliy hind xalqi an'analari bilan uyg'unlashuvi hamda Hindistonning shimoliy qismida shakllangan hind va musulmon madaniyati sintezining rivojlanishiga guvoh bo'lamiz<sup>6</sup>.

Boburiylar saroyidagi turk va fors tillarini yaxshi biladigan taniqli malikalardan biri Boburning qizi Gulbadan Begim edi. U adabiy izlanishlar bilan faol shug'ullanib, she'rlar yozgan va o'z kutubxonasini yuritgan. Boburning ikkinchi qizi Gulruh ham she'riyatga mehr qo'ygan va ko'plab she'rlar yozgan. Podshoh Humoyunning jiyani Salima Sulton Begim ham adabiy faoliyat bilan shug'ullangan ayollardan biri edi. U she'r yozgan, fors tilidan ham xabardor bo'lgan. Saroyda o'z shaxsiy kutubxonasiga ega edi<sup>7</sup>.

Shoh Jahonning qizi Jahonora Begim oliy ma'lumotli ayol bo'lib, fors tilida she'rlar ham yozgan. Avrangzebning katta qizi Zeb-un-Niso Begim fors va arab tillarini yaxshi bilardi. U xattotlik san'atini mukammal egallagan bo'lib, "Shikast", "Nastaliq", "Nash" yozuvlarini mohirlik bilan yozgan. U "Divon maxfiy"ni yozgan hamda "Zeb" taxallusida she'rlar bitgan<sup>8</sup>.

<sup>1</sup> Komilova D. (2012) Hindiston ta'lim tizimi. -Toshkent, 2012 -C. 41-42.

<sup>2</sup> <https://www.britannica.com/topic/education/The-Mughal-period>

<sup>3</sup> <https://learnershub24x7.com/female-education-during-the-mughal-period/>

<sup>4</sup> <https://learnershub24x7.com/female-education-during-the-mughal-period/>

<sup>5</sup> M.C. Sarkar. Studies of Mughal period in India. Calcutta: 2002. -P.139.

<sup>6</sup> Muhibova U.U., Abduraxmonova M.H. (2018) Boburiylar davri adabiyoti (hindiy va urdu tillaridagi adabiy meros). -T.,2018. - 300 b. -B. 289.

<sup>7</sup> <https://learnershub24x7.com/female-education-during-the-mughal-period/>

<sup>8</sup> <https://learnershub24x7.com/female-education-during-the-mughal-period/>

Bugungi g'arb andozasi asosida shakllangan zamonaviy hind ta'lim dasturi poydevori ingliz mustamlakachiligi davrida mustahkamlana boshlandi. Britaniya hukmronligi davrida hind jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda ta'lim, ish bilan ta'minlash, ijtimoiy va siyosiy huquqlar bo'yicha erkak va ayollar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ijtimoiy harakatlar ayollarning ijtimoiy-siyosiy holatiga ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlarning muhim jihatlardan edi.

Britaniya mustamlakachiligi Hindiston ta'lim sohasiga amaliy va zamonaviy ta'lim tushunchasini kiritdi. Dastlab, inglizlar mamlakatni yaxshiroq tushunish uchun mahalliy urf-odatlar, an'analar va qonunlarni o'rganish uchun ta'lim muassasalarini tashkil etdilar. Shuningdek, ingliz mustamlakachilari uchun tanasi hind, fikrlashi esa ingliz bo'lgan kadrlar zarur edi. Britaniya hukmronligi ostida ta'limda zamonaviy ta'limning uch vakili ya'ni hind ziyolilari va islohotchilari, xristian missionerlari hamda Ost-India kompaniyasi mavjud edi. Ular Hindistonda hanuzgacha saqlanib qolgan ta'limning zamonaviy ko'rinishini shakllantirgan muhim akt, komissiya va dasturlarni kiritdilar.

Britaniya mustamlakachiligi davrida shuningdek, xotin-qizlar ta'limiga ham e'tibor qaratilib, aynan shu davrdan boshlab amaliy tarzda ayollar ta'limi targ'iboti keng quloq yoya boshlagan. Britaniya parlamentining 1813-yil nizomidagi bandga ko'ra, Hindistonda qizlarning ta'limiga bo'lgan talabi missionerlarga Sharqiy Hindiston kompaniyasi nazorati ostidagi hududlarda ishlashga ruxsat berganidan keyin kuchaydi. Missionerlarga Kompaniyaning ma'muriy chegaralarida ruxsat berilgach, ular maktab va kasalxonalar ochish orqali mahalliy aholiga yaqinlasha boshladilar. Missionerlar qizlarga ham o'g'il bolalar kabi o'qishga ruxsat berishdi. Dastlab bunday maktab 1821-yilda Tirunelveli shahrida tashkil etilgan. Yana bir maktab 1837-yilda London Missionerlik Jamiyatining missioneri Anna Dryu xonim tomonidan ochilgan<sup>1</sup>.

Ushbu davrda Buyuk Britaniyada ham qizlarni maktablarga yuborish jarayoni yaqinda paydo bo'lgan hodisa edi. Kristina de Bellaig o'zining "Ayollarni tarbiyalash: Angliya va Frantsiyada maktab va o'ziga xoslik, 1800-1867" kitobida ta'kidlaganidek<sup>2</sup>, Buyuk Britaniyadagi diniy tashkilotlar faqat XVIII asr oxiriga kelib, qiz bolalar uchun maktablar tashkil etishgan. Biroq, bu muassasalardan faqat qizlarining o'qishi uchun pul to'lashga qodir bo'lgan badavlat oilalargina foydalanishi mumkin edi.

XIX asr oxirida Britaniya hududida ham mahalliy zodagon aholi farzandlari ta'lim olishi yo'lga qo'yilgan edi, biroq quyi qatlam aholisi asosan qora mehnatga safarbar etilgandi. Hindistonda ham xuddi shunday vaziyat hukmron bo'lib, yuqori tabaqaga mansub yoki badavlat oiladagi qizlar odatda o'z uylarida ta'lim olishgan. Bu vaziyatni o'zgartirish maqsadida 1830-1840- yillarda Ishvarchand Vidyasagar, Raja Rammoxan Roy, aka-uka Tarhadkar, Bhaskar Pandurang va Dadoba Pandurang singari rahnamolar tomonidan hind jamiyatida mavjud bo'lgan erta bolalar nikohi, beva ayollarning og'ir turmush sharoiti va sifatsiz ta'limdan voz kechishga qarshi qaratilgan kompaniyalar vujudga kela boshladi<sup>3</sup>. Bengaliyada Kalikrishna Mitra o'zining ukasi Nabinkrishna va pedagog Peari Charan Sarkar bilan birga xotin-qizlarning ta'lim olishini targ'ib qila boshladi. Bu yetakchi ilg'orlar qizlarga ta'lim berishni ayollarni ozod qilish va turli ijtimoiy illatlarga qarshi kurashish usuli deb bilishgan. Ularning xotin-qizlarni o'qitish kompaniyasi 1847-yilda Kalikrishna qizlar o'rta maktabiga asos soldi, bu Britaniya Hindistonidagi birinchi bepul xususiy qizlar o'rta maktabi edi<sup>4</sup>. Tez orada mamlakatning boshqa hududlarida ham xotin-qizlar ta'limi targ'ib qilinib, alohida xotin-qizlar maktablari ochila boshlandi.

<sup>1</sup> <https://anuraag-shukla.medium.com/a-visual-journey-of-the-history-of-girls-education-in-india-1c1283a6e03c#:~:text=Social%20reformers%20Jyotirao%20Phule%20and,education%20in%20India%20increased%20significantly>

<sup>2</sup> De Bellaigue, C. (2007). *Educating women: schooling and identity in England and France, 1800–1867*. OUP Oxford.

<sup>3</sup> Anjali Basu (2004). *Sansad Bangali Charitabhidhan*. Kolkata: Sahitya Sansad. -P. 77. ISBN 81-86806-99-7.

<sup>4</sup> Anjali Basu (2004). *Sansad Bangali Charitabhidhan*. Kolkata: Sahitya Sansad. -P. 78. ISBN 81-86806-99-7.

“Men ta’lim har bir ayolning ozod bo‘lishining asosiy kaliti ekanligiga ishonaman”, - derdi, umri davomida ayollar huquqlari uchun kurashgan hind islohotchisi Savitribai Phule.<sup>1</sup> Savitribai turmushga chiqqanida savodsiz edi, unga turmush urtog‘i ta’lim beradi. Jyotirao Phule va Savitribai Phule 1848-yilda Puna shahrida qizlar maktabini ochadilar va Savitribai Hindistondagi birinchi hind ayol muallimasi bo‘ldi. 1851-1852-yillarda ular yana ikkita maktab ochishga muvaffaq bo‘ldilar<sup>2</sup>.

XIX asrning ikkinchi yarmida Hindistonda xotin-qizlar ta’limi sezilarli darajada yaxshilandi. 1854-yilgi Wood's Dispatcher<sup>3</sup> ayollarning ta’lim olishi va ularning ish bilan ta’minlanishi zarurligini tan oldi. 1871-yilda qizlar uchun 134 ta o‘rta va 1760 ta boshlang‘ich maktab mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1901–1902-yillarda bu maktablar soni oshdi va boshlang‘ich maktablar soni 5628 taga, o‘rta maktablar soni esa 461 taga yetdi<sup>4</sup>.

1879-yil Kalkutta shahrida Bethune qizlar kolleji ochildi. Dastlab, bu dargoh 1849-yilda Jon Elliot Drinkouter Bethune tomonidan maktab sifatida tashkil etiladi<sup>5</sup>. 1862-1863-yillarda uning asoschisi sharafiga Bethune maktabi deb o‘zgartirilib, 1879-yil kollejga aylantiriladi. Bu Hindistondagi birinchi ayollar kolleji hamda Puna shahrida Savitribai Phule tomonidan ta’ sis etilgan Bhivedadadan keying ikkinchi qizlar maktabi hisoblanadi<sup>6</sup>.

Xotin-qizlar ta’limiga yo‘naltirilgan sarmoya va ular uchun yaratilgan eksklyuziv maktablarning ochilishi ham qisman oliy ta’limning demokratlashuviga olib keldi. Shu asnoda qizlarning tug‘ilishi bilanoq ijtimoiy hayotidagi rolini belgilovchi eski tizim yemirila boshladi va uning o‘mida ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida erkaklar bilan raqobat qila oladigan xotin-qizlarni yetishtirib beradigan ta’lim sohasi poydevori paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, yangi tizim mustamlakachilik byurokrtiyasida har kim, shu jumladan, ayollar ham ishlashi mumkin bo‘lgan ko‘plab lavozimlar paydo bo‘ldi. Mustamlaka hukumati turli shaharlarda oliy o‘quv yurtlarini ochar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan imtiyozli jamoalar oxir-oqibat mustamlakachilik byurokrtiyasiga qo‘shilishlari uchun xotin-qizlarni ham shu ta’lim muassasalarga yubora boshladilar. Tizim 1886-yilda g‘arb tibbiyotining birinchi hind ayol shifokori bo‘lgan Anandibai Joshi kabilar hind jamiyatida yetishib chiqishida asos vazifasini o‘tadi.

Qizlarni maktablarga qabul qilish harakati Hindistonning turli hududlarida ham tarqaldi. Ko‘pgina mahalliy davlat amaldorlari o‘z hududlarida qizlar maktablarini ochish orqali hukumatlarini mustahkamlashga intildilar. Ko‘plab jamoat tashkilotlari ham o‘z hududlarida qizlarni o‘qitish uchun qizlar maktablarini ochishga kirishdilar.

1870-yillarda boshlangan o‘n yillik Hindistonda qizlarni o‘qitish uchun eng samarali yillar bo‘ldi, chunki butun mamlakat bo‘ylab shu davrda ayollar ta’limiga qaratilgan dasturlar mavjud edi. Xotin-qizlar uchun maktablar katta hudud bo‘ylab hozirgi Pokistondagi Sinddan Suratgacha ko‘payib borardi. Karnatakadagi Belgaum kabi kichikroq joylarda ham 1870-yilga kelib qizlar maktabi mavjud edi<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> <https://www.herzindagi.com/amp/society-culture/savitribai-phule-women-of-history-first-school-for-girls-india-article-230863>

<sup>2</sup> <https://www.herzindagi.com/amp/society-culture/savitribai-phule-women-of-history-first-school-for-girls-india-article-230863>

<sup>3</sup> Wood's dispatcher - bu Britaniya Sharqiy Hindiston kompaniyasi nazorat kengashi prezidenti ser Charlz Vud tomonidan Hindiston general-gubernatori Lord Dalxuziga yuborilgan rasmiy jo‘natmaning norasmiy nomi. Vudning kommunikasi Hindistonda ingliz tilidan foydalanishni ommalashtirishga katta o‘zgarishlar kiritishni taklif qildi. Ta’lim tiliga kelsak, Vud boshlang‘ich maktablarga xalq tillarini, o‘rta maktablar uchun ham ingliz, ham mahalliy tillarni, kollejlarda esa ingliz tilini qabul qilishni tavsiya qildi.

<sup>4</sup> <https://anuraag-shukla.medium.com/a-visual-journey-of-the-history-of-girls-education-in-india-1c1283a6e03c#:~:text=Social%20reformers%20Jyotirao%20Phule%20and,education%20in%20India%20increased%20significantly>

<sup>5</sup> Acharya Poromesh. (1990). Education in old Calcutta. The past Oxford University Press. -P. 87

<sup>6</sup> LBR, Team (2018). Limca book of records: India at her best. Hachette India. -P. 161.

<sup>7</sup> [https://books.google.co.uz/books?id=c79aDwAAQBAJ&pg=PT161&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=c79aDwAAQBAJ&pg=PT161&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)

<sup>8</sup> <https://anuraag-shukla.medium.com/a-visual-journey-of-the-history-of-girls-education-in-india-1c1283a6e03c#:~:text=Social%20reformers%20Jyotirao%20Phule%20and,education%20in%20India%20increased%20significantly>

<sup>9</sup> <https://anuraag-shukla.medium.com/a-visual-journey-of-the-history-of-girls-education-in-india-1c1283a6e03c#:~:text=Social%20reformers%20Jyotirao%20Phule%20and,education%20in%20India%20increased%20significantly>

Faqat o'quvchi qizlarga mo'ljallangan maktablarning ko'payishi muqarrar ravishda malakali ayol o'qituvchilarga nisbatan bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Ko'pgina jamoalar o'zlarining qiz farzandlarini o'qitish uchun ayollarni yollashlari odatiy hol edi. Ko'pgina hududlarda oilalarida birinchi bo'lib maktabga chiqqan yosh qizlar ayol o'qituvchilarning birinchi avlodi bo'lishdi. Bu maktablarda ta'lim asosan o'qish, yozish va hisoblashdan iborat edi. Usha davr uchun bu hodisa hind jamiyatida yuz bergan ijobiy tub burilish edi.

Talaba qizlar soni tobora ortib borayotganligi sababli, xotin-qizlar uchun alohida universitetlar tashkil etish masalasi vujudga kela boshladi. Ayollar o'rtasida oliy ma'lumotga ega bo'lish talabining ortib borayotganini ta'minlash uchun, beva ayolning qayta turmush qurishi va xotin-qizlar ta'lim olishi targ'ibotchisi bo'lgan Dhondo Keshav Karve 1916-yilda Maxarashtra SNTD Ayollar universiteti (Shreemati Nathibai Damodar Thackersey Women's University) ni tashkil etdi. Bu universitet nafaqat Hindistondagi, shuningdek, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi birinchi ayollar universiteti hisoblanadi<sup>1</sup>.

Jamiyatda mavjud bo'lgan eski tizimni o'zgartirishga yordam bergan hamda xotin-qizlar ta'limi yoyilishida yana bir turtki bu - Millatchilik harakati edi, ayniqsa, Gandi davrida bu harakat yanada avj oldi. Boshlangan turli satyagrahalarda nafaqat yuqori tabaqadagi shahar ayollari, balki chekka joylardagi oddiy qishloq ayollari ham ishtirok etishdi<sup>2</sup>.

Mahatma Gandining faol hind siyosatiga kirishi qizlarning ta'lim olishi uchun ijobiy nuqta bo'ldi. U xotin-qizlarning bilim olishi muhimligini ta'kidlash bilan birga, ularni ijtimoiy hayotda, siyosiy harakatlarda ham ishtirok etishga undadi. Robindranat Tagor ham o'zining "Brahmo Samaj" tamoyillariga amal qilib, qizlarning ta'lim olishini faol ravishda targ'ib qildi va ularning jismoniy, aqliy, axloqiy hamda ma'naviy rivojlanishi uchun harakat qildi. Tagor ushbu maqsadda 1921-yil 23-dekabrda Vishva Bharati universitetini ochdi. Babasahib Ambedkar uni qo'llab-quvvatladi va bu qizlarning ta'lim olishiga yana bir imkon bo'ldi. U tenglikka qat'iy ishonadi va xotin-qizlar uchun ta'lim ularga ovoz berish va turmush qurish nuqtayi nazaridan vakolatli bo'lishga imkon berishini ta'kidladi. Biroq, qizlarning ta'lim olishi uchun astoydil kurashgan ilk islohotchilarning sa'y-harakatlarisiz XX asrda qizlar ta'limi sohasidagi muvaffaqiyat va yutuqlarning hech biri amalga oshmas edi<sup>3</sup>.

Ushbu sa'y-harakatlar xotin-qizlar o'rtasida ta'limni kengaytirish uchun zamin yaratgan bo'lsa-da, Hindiston mustaqillikka erishgan davrda ham xotin-qizlar ta'limi og'ir ahvolda edi. Masalan, 1947-yilda mamlakatning umumiy savodxonlik ko'rsatkichi 16%, ayollarning umumiy savodxonlik darajasi esa 6% ni tashkil etardi<sup>4</sup>.

Mustaqillikdan keyingi davrda ham ayollar savodxonlik darajasi asta-sekinlik bilan bo'lsa-da rivojlandi davom etdi. 1951-yilgi aholini ro'yxatga olishda ayollarning savodxonlik darajasi 8,86 foizni, umumiy savodxonlik esa 18,33 %ni tashkil etdi<sup>5</sup>. Shunga qaramasdan hukumat bu sohada ko'plab ijobiy-amaliy faoliyat yuritishga harakat qildi.

Mamlakatning birinchi bosh vaziri Javoharlal Neru o'z siyosiy faoliyati davomida xotin-qizlarga ijtimoiy-siyosiy sohalarda bir muncha mustaqilliklar yaratadi. Xususan, ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlari "Ta'lim olish huquqi" bilan kafolatlandi. Shuningdek, 1948-yil Konstitutsiyaning 36 hamda 45 moddasi xotin-qizlar ta'limiga bag'ishlandi. Unga ko'ra, har bir fuqaro bepul boshlang'ich ta'lim olish huquqiga ega va davlat ushbu Konstitutsiya qabul qilingan kundan boshlab o'n yil ichida barcha bolalar

<sup>1</sup> About Us | SNTD Women's University. <https://sntd.ac.in/about-us>

<sup>2</sup> <https://www.yourarticlelibrary.com/india-2/changes-in-the-status-of-indian-women-during-british-rule-essay/4400>

<sup>3</sup> <https://studda.in/evolution-of-education-services-for-women-in-india/#:~:text=In%20the%201960s%20and%201970s,access%20to%20education%20for%20women.>

<sup>4</sup> <https://www.toppr.com/ask/question/what-was-indias-overall-literacy-rate-during-british-rule/#:~:text=When%20the%20British%20rule%20ended,was%20found%20to%20be%2074.04%25>

<sup>5</sup> PIB Press Releases <https://archive.pib.gov.in/archive/releases98/lyr2003/rsep2003/06092003/r060920031.html>

o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar bepul va majburiy ta'lim olishlarini ta'minlashga harakat qilishi belgilandi<sup>1</sup>.

Hukumat mustaqillikka erishgandan so'ng, ayollar uchun sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirishga harakat qildi. Bu yo'nalishdagi birinchi yirik qadam 1953-yilda universitet grantlari komissiyasining (UGC) tashkil etilishi bo'lib, u ayollar kollej va universitetlarini moliyalashtirishni ta'minladi. Bu bir qancha ayollar kollej va universitetlari, jumladan Chennaiyidagi ayollar xristian kolleji hamda Dehlidagi ayollar uchun "Lady Shri Ram" kollejining tashkil etilishiga olib keldi<sup>2</sup>.

Indira Gandi o'z siyosiy faoliyati davomida xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi o'rini topishida bir qancha sharoit yaratib beradi. 1950-yillar davomida u ayollarni Hindiston siyosatiga jalb qilish qilish va yig'ish ustida ishladi<sup>3</sup>. 1956-yilda siyosiy kareyerasining boshlanish pallasida Kongress partiyasining ayollar bo'limini tashkil etishga yordam beradi. Indira Gandi davrida xotin-qizlarning siyosat sohasiga kirib kelishi uchun sharoit hozirlangan.

1960-1970-yillarda hukumat ayollar uchun ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator dasturlarni ishga tushirdi, jumladan, ayollar uchun 1968-yildagi "Ta'lim bo'yicha Milliy siyosat" va 1988-yilda "Mahila Samahya" dasturi shular jumlasidandir. Mahila Samahya dasturi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi aholi hayotiga e'tibor qaratgan holda, usha hududdagi xotin-qizlarning sifatli ta'lim olishini taminlashga oid yaratilgan dastur edi<sup>4</sup>.

Indira Gandining vorisi Radjiv Gandi hukumati davrida ham xotin-qizlar ta'limiga e'tibor qaratildi. Radjiv ayollarni kasb-hunarga o'rgatish va asosan xotin-qizlarni o'qituvchilik kasbiga yo'naltirishga rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratdi. U shunday derdi: "Kasb-hunarga o'rgatish oila uchun, uning oiladagi mavqeyi, kerak bo'lsa mustaqilligi uchun juda foydalidir. O'qituvchilik - bu juda muhim kasb bo'lib, mamlakat ta'lim sohasidagi eng kerakli va kam sonli kadr hisoblanadi. Lekin, agar o'qituvchilar bilimli bo'lmasa, biz hech qachon yetarlicha ayol o'qituvchi kadrlarga ega bo'lolmaymiz - qancha ko'p ziyoli ayollarni jalb qilsak, ta'lim ham shuncha yaxshi bo'ladi". Radjiv shuningdek, Sati amaliyotini ham qoralagan, uning fikricha, Sati amaliyoti eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biridir. Radjiv Gandi hukumati bu yo'nalishda qator ishlarni amalga oshirdi. Uning hukumati Sati bilan shug'ullanish, targ'ib qilish, nishonlashni taqiqladi, sep (yoxud qalin puli) bilan bog'liq huquqbuzarliklarga oid qonunchilikni kuchaytirdi<sup>5</sup>.

1990 yillarda hukumat ta'limda gender tengligini targ'ib qilish bo'yicha bir qancha siyosatlarni joriy etdi (jumladan, tuman Boshlang'ich ta'lim dasturi (DPEP) va Sarva Shiksha Abhiyan (SSA)). Bu dasturlar qizlarga alohida e'tibor qaratgan holda barcha bolalarni bepul va majburiy ta'lim bilan ta'minlashga qaratilgan edi<sup>6</sup>.

Hindiston parlamenti tomonidan 2009 yil 4 avgustda "Bolalarning bepul va majburiy ta'lim olishi" to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, 6 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalar, jumladan qizlarning ham ta'lim olishi majburiyligi joriy etildi. 2010-yil 1-apreldan kuchga kirgan ushbu qonun tufayli Hindiston ta'lim olish har bir bolaning asosiy huquqiga aylantirilgan 135 mamlakat orasidan joy oldi<sup>7</sup>.

<sup>1</sup> <https://www.constitutionofindia.net/articles/article-45-provision-for-early-childhood-care-and-education-to-children-below-the-age-of-six-years/>

<sup>2</sup> <https://studda.in/evolution-of-education-services-for-women-in-india/#:~:text=In%20the%201960s%20and%201970s,access%20to%20education%20for%20women>

<sup>3</sup> [http://www.edchange.org/multicultural/speeches/indira\\_gandhi\\_educated.html](http://www.edchange.org/multicultural/speeches/indira_gandhi_educated.html)

<sup>4</sup> <https://studda.in/evolution-of-education-services-for-women-in-india/#:~:text=In%20the%201960s%20and%201970s,access%20to%20education%20for%20women>

<sup>5</sup> <https://www.asianage.com/india/all-india/220517/rajiv-a-passionate-crusader-for-womens-empowerment.html>

<sup>6</sup> <https://studda.in/evolution-of-education-services-for-women-in-india/#:~:text=In%20the%201960s%20and%201970s,access%20to%20education%20for%20women>

<sup>7</sup> "India joins list of 135 countries in making education a right". [thehindu.com/news/national/article365232.ece](https://www.thehindu.com/news/national/article365232.ece).  
<https://www.thehindu.com/news/national/article365232.ece>

Hindiston hukumati ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda, ayniqsa, qishloq joylarida qizlarning ta‘lim olishi muhimligi e‘tirof etilmoqda. Hukumat qizlarning ta‘lim olishini targ‘ib qilish bo‘yicha bir qancha tashabbuslarni boshladi. Hozirda mamlakat bo‘ylab nafaqat hukumat vakillari, shuningdek, nodavlar tashkilotlar ham jamiyatdagi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotini yaxshilashda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan dasturlar, ishchi guruhlar va bir qator amaliy jarayonlarni tatbiq qilishmoqda. Asosiy dasturlardan ba'zilari: Swayamsidhaprogramme (2001), Rajiv Gandhi National Creche Scheme (2012), Indira Gandhi MatrivaSahyog Yojana (IGMSY, 2010), Kishori Shakti Yojana (2006), Swadgar (2002), Ujjawala (2016), Priyawala (2012), Beti Bachao-Beti PadhaoYjona (2015), Mahila E-Haat (2016) va boshqalar<sup>1</sup>.

Bu kabi say-harakatlar natijasi o‘laroq mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ayol kadrlar yetishib chiqdi va jamiyatda o‘z o‘rnlarini topdilar. Quyida ularning bir nechtasiga misol keltirsak.

**Aruna Asaf Ali** – pedagog, siyosatshunos Dehlining birinchi meri;

**Savitribai Phule** – Punada birinchi zamonaviy hind qizlar maktabini ochgan birinchi hind ayol o‘qituvchi;

**Anandi Gopal Joshi** – g‘arb tibbiyotini o‘rgangan birinchi hind ayol shifokori;

**Sucheta Kripalani** – siyosatshunos, 1963-1967-yillarda Uttae-Pradesh hukumati rahbari bo‘lib 1940-yilda Butun Hindiston Mahila Kongressini tuzgan;

**Lakshmi Sahgal** – Hindiston milliy armiyasida ofitser, kapitan bo‘lib, Azad Hind hukumati ayollar ishlari bo‘yicha vazir bo‘lgan;

**Indira Gandi** – mamlakat birinchi ayol bosh vaziri, 1999-yil BBC tomonidan tashkil etilgan online so‘rovda “Ming yillik ayoli” nomini olgan. 2020-yil Time jurnali tomonidan o‘tgan asrni aniqlagan dunyodagi eng kuchli 100 ta ayol qatoriga kiritilgan;

**Anna Chandy** – Hind birinchi ayol sudyasi. U Emili Merfigacha Britaniya imperiyasining birinchi ayol sudyalardan biri bo‘lgan;

**Kalpana Chavla** – kosmosga chiqqan birinchi hindistonlik ayol;

**Pratibha Devisingh Patil** – birinchi Hindiston ayol prezidenti;

**Droupadi Murmu** – 2022-yildan boshlab Hindistonning amaldagi ayol prezidenti.

Shuningdek, mamlakat mustaqillikka erishgan davrdan bugungi kungacha xotin-qizlar ta‘limi garchi erkaklar savodxonlik darajasi bilan solishtirganda anchagina tafovut bo‘lishiga qaramasdan, o‘shida davom etib kelmoqda. Quyida berilgan jadval orqali xotin-qizlar savodxonlik darajasining yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlarini keltirib o‘tamiz.

1- **jadval. Jinslar o‘rtasidagi savodxonlik ko‘rsatkichi - 1901-2011<sup>2</sup>.**

| Yillar | Erkaklar | Ayollar | Umumiy |
|--------|----------|---------|--------|
| 1951   | 27,16    | 8,86    | 18,3   |
| 1961   | 40,4     | 15,35   | 28,3   |
| 1971   | 45,96    | 21,97   | 34,5   |
| 1981   | 56,38    | 29,76   | 43,6   |
| 1991   | 64,13    | 39,21   | 52,2   |
| 2001   | 75,26    | 53,67   | 64,8   |
| 2011   | 82,14    | 65,46   | 73,0   |

<sup>1</sup> Buddhadeb Ghoari, Sahin Sahari. Women education in the 21<sup>st</sup> century in India: Women empowerment and gender equality. Journal of Engineering sciences. Vol 11, Issue 5, May/2020. ISSN NO:0377-9254

<sup>2</sup> <https://linksharing.samsungcloud.com/prBpio9nwUzx>



1-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 1951-yildan beri savodxonlik darajasining o'sish sur'ati doimiy ravishda oshib bormoqda. Savodxonlikning eng past o'sish sur'ati 1961-yildan 1971- yilgacha yuqoridagi ma'lumotlarda aks ettirilgan. Ayniqsa, 1991-yildan keyin 2001-yilgacha bo'lgan savodxonlik darajasining farqi taxminan 12 foizni tashkil etadi, bu 1951-yildan 2011- yilgacha bo'lgan barcha o'n yilliklar ichida eng yuqori o'sish sur'ati hisoblanadi.

Ushbu sa'y-harakatlar tufayli Hindistonda ayollar uchun ta'lim xizmatlarining evolyutsiyasi davlat iqtisodiyotini kuchaytirish, jamiyatdagi gender tenglikni ta'minlash va sifatli ta'lim orqali ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi muhim qadam vazifasini o'tadi.

**Xulosa.** Ayollar davlatni olg'a siljitishda va uni yuksalish sari yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Hindistonda ayollar ta'limi tobora ommalashib bormoqda. Ular milliy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan insoniyatning muhim omilidir. Shunday ekan, Hindistonda xotin-qizlarning kelajagi porloq bo'lishini uchun ta'lim ustuvor bo'lishi kerak. Ayollar ta'limi jamiyat munosabatini o'zgartirishning eng kuchli vositasidir. Ta'lim, shuningdek, tengsizliklarni kamaytiradi va ularning oiladagi mavqeyini oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayollar imkoniyatlarini kengaytirish uzoq muddatli rivojlanishga erishish uchun juda muhimdir.

Ayollar imkoniyatlarini kengaytirishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-madaniy muammolar imkon qadar tezroq hal qilinishi kerak. Hukumat ham, tijorat investorlari ham ayollarning ta'limini rag'batlantiruvchi dasturlarga sarmoya kiritmoqda. Bugungi kunda Hindistonda ayollar xoh uyda, xoh ishda, xoh siyosatda bo'lsin jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy sohalarda faoliyat yuritmoqda. Sifatli ta'lim porloq kelajak uchun zamin yaratadi. Shu bois xotin-qizlar ta'lim tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish shart va zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhibova U.U., Abduraxmonova M.H. (2018) Boburiylar davri adabiyoti (hindiy va urdu tillaridagi adabiy meros). -Toshkent,2018. -300 b. -B. 289.
2. Komilova D. (2012) Hindiston ta'lim tizimi. -Toshkent, 2012 -B. 41-42.
3. Buddhadeb Ghosri, Sahin Sahari. (2020) Women education in the 21<sup>st</sup> century in India: Women empowerment and gender equality. Journal of Engineering sciences. Vol 11, Issue 5, May/2020. ISSN NO:0377-9254
4. Anjali Basu (2004). Sansad Bangali Charitabhidhan. Calcutta: Sahitya Sansad. - P. 78. ISBN 81-86806-99-7.
5. Bellaigue D. C. (2007). Educating women: schooling and identity in England and France, 1800–1867. OUP Oxford.
6. Sarkar M.C. (2002). Studies in Mughal India. 2nd ed Calcutta: M.C. Sarkar and Sons. 2002. - P.139.
7. Acharya Poromesh. (1990). Education in old Calcutta. The past Oxford University Press. - P. 87
8. LBR, Team (2018). Limca book of records: India at her best. Hachette India. - P. 161.  
[https://books.google.co.uz/books?id=c79aDwAAQBAJ&pg=PT161&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=c79aDwAAQBAJ&pg=PT161&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false)
9. Top 10 Reasons Why Female Education is Important
10. <https://borgenproject.org/top-10-reasons-female-education-important/>
11. <https://learnershub24x7.com/female-education-during-the-mughal-period/>

